

DOI: 10.5281/zenodo.15860620

Link: <https://zenodo.org/records/15860620>

TO‘QIMACHILIK KORXONALARINING INNOVATSION FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHNING XORIJIY TAJRIBASI

Samaroxonov Askarxon Jamolxon o‘g‘li

Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

Buxgalteriya hisobi va marketing kafedrasi doktoranti

E-mail: Samarokhonova@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada dunyoning yetakchi mamlakatlarida to‘qimachilik sanoatini innovatsion rivojlantirishni moliyalashtirishga oid samarali yondashuvlar, institutlararo hamkorlik, moliyaviy instrumentlar va davlat siyosatining o‘rni atroflicha tahlil etiladi. Jumladan, Germaniya, Xitoy, Turkiya va Janubiy Koreya kabi mamlakatlarning ilg‘or tajribalari asosida innovatsiyalarni rag‘batlantirishda qo‘llanilayotgan kredit, grant, subsidiyalar, soliq imtiyozlari va vechur kapital fondlari turlari yoritib beriladi. Shuningdek, ilm-fan va sanoat integratsiyasini kuchaytirish, startap loyihalarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining amaliy jihatlari o‘rganiladi. Maqola yakunida O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatida xorijiy tajribani tatbiq etish uchun aniq tavsiyalar ishlab chiqiladi. Tadqiqot natijalari milliy innovatsion strategiyani shakllantirish va moliyaviy infratuzilmani takomillashtirishda amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: to‘qimachilik sanoati, innovatsion faoliyat, moliyalashtirish, xorijiy tajriba, grantlar, kreditlar, subsidiyalar, vechur kapital, davlat qo‘llab-quvvatlashi, ilmiy hamkorlik, startaplar, innovatsion siyosat.

Kirish

Bugungi globallashuv va raqobat kuchaygan davrda to‘qimachilik sanoatining innovatsion rivojlanishi mamlakat iqtisodiy barqarorligining muhim omillaridan biri sifatida qaralmoqda. Ayniqla, innovatsion faoliyatni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlanmalari (ITTKI) asosida yangi mahsulotlar yaratish, xorijiy mamlakatlar tajribasini chuqur o‘rganishni talab qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Innovatsiyalar iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchiga aylanishi lozim. Har bir soha o‘z innovatsion strategiyasiga ega bo‘lishi shart” (Sh.M. Mirziyoyev, “Yangi O‘zbekiston – taraqqiyot va islohotlar yo‘li”, 2022-yil)¹⁴.[7]

Davlat rahbari tomonidan ilgari surilgan 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida ham to‘qimachilik sanoatini modernizatsiya qilish, eksportbop va yuqori qo‘srimcha qiymatga ega mahsulotlar

¹⁴ Mirziyoyev, Sh. M. (2022). Yangi O‘zbekiston – taraqqiyot va islohotlar yo‘li. Toshkent: O‘zbekiston.

ishlab chiqarishni kengaytirish, ilmiy-texnologik salohiyatni oshirish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan.¹⁵

Shuningdek, “Innovatsion rivojlanish to‘g‘risida”gi Qonun (2019-yil, 24-oktabr)¹⁶ va O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligining 2030-yilgacha bo‘lgan strategiyasida ham innovatsion faoliyatni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish, xususiy sektor ishtirokini kengaytirish, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini mustahkamlash kabi masalalarga alohida e’tibor qaratilgan.[8]

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatmoqdaki, rivojlangan mamlakatlarda to‘qimachilik sanoatida innovatsiyalarini rag‘batlantirishda hukumatning bevosita ishtiroki, jumladan grantlar, subsidiyalar, soliq imtiyozlari, vechur kapital va AR-GE (ilmiy-tadqiqot) fondlari muhim rol o‘ynaydi. Bunday yondashuvlar Germaniya, Xitoy, Turkiya, Janubiy Koreya kabi mamlakatlarda muvaffaqiyatli amaliyotga joriy etilgan.

Shu nuqtai nazardan, mazkur maqolada xorijiy davlatlarning to‘qimachilik sohasida innovatsion faoliyatni moliyalashtirish tajribasi tahlil qilinib, O‘zbekiston sharoitida uni qo‘llash imkoniyatlari, samarali moliyaviy mexanizmlarni shakllantirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

So‘nggi yillarda innovatsion rivojlanish va uni moliyalashtirish mexanizmlari bo‘yicha ilmiy va amaliy izlanishlar jadal rivojlanmoqda. Xususan, to‘qimachilik sanoatida innovatsiyalarini rag‘batlantirish va ularni moliyalashtirishda davlat siyosatining roli, xususiy sektor ishtiroki, vechur kapital, grant va subsidiyalar samaradorligi xorijiy olimlar tomonidan chuqur o‘rganilmoqda.

Jahon bankining (World Bank, 2022)¹⁷ hisoboti ta’kidlashicha, ishlab chiqaruvchi tarmoqlarda, xususan, to‘qimachilik sanoatida innovatsion faoliyatni rag‘batlantirishda moliyaviy infratuzilmaning barqarorligi, kichik va o‘rtta korxonalar uchun kreditga kirish imkoniyatining kengligi muhim omillar hisoblanadi. Xalqaro tajriba asosida ishlab chiqilgan ushbu hisobotda, subsidiyalangan kreditlar, AR-GE (R&D) loyihamalarini moliyalashtirish uchun maxsus fondlar, davlat kafolatlari va soliq imtiyozlari eng samarali moliyaviy vositalar sifatida ko‘rsatib o‘tilgan.[5]

OECD (2023)¹⁸ tomonidan e’lon qilingan “Financing SMEs and Entrepreneurs” nomli yillik hisobotda ham innovatsion faoliyatni moliyalashtirishda davlat-xususiy sheriklik, texnologik inkubatorlar, startap ekotizimlarini qo‘llab-quvvatlovchi mexanizmlar to‘g‘risida muhim tahlillar keltirilgan. Ayniqsa, Italiya, Fransiya, Janubiy Koreya va Turkiya tajribalarida to‘qimachilik sanoatini modernizatsiyalashda vechur kapital va davlat grantlari muhim rol o‘ynayotganiga e’tibor qaratiladi.[4]

¹⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2022). 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida [Farmon PQ-60-son, 2022-yil 28-yanvar]. <https://strategy.uz>

¹⁶ O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi. (2019). Innovatsion rivojlanish to‘g‘risida [Qonun, 2019-yil 24-oktabr]. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. <https://lex.uz/docs/4561661>

¹⁷ World Bank. (2022). Innovative finance for sustainable textile production in emerging markets. Washington, DC: World Bank Group. <https://www.worldbank.org>

¹⁸ OECD. (2023). Financing SMEs and entrepreneurs 2023: An OECD scoreboard. OECD Publishing. https://doi.org/10.1787/fin_sme_ent-2023-en

Li & Zhang (2021)¹⁹ Xitoyda olib borgan tadqiqotida "Made in China 2025" dasturi doirasida to'qimachilik sanoatiga jalb etilgan investitsiyalar, innovatsion texnologiyalarni moliyalashtirishdagi hukumatning o'rni, bank kreditlari va sanoat klasterlari orqali yaratilgan moliyaviy mexanizmlarni tahlil qilgan. Ularning fikricha, texnologik o'zgarishlarni moliyalashtirishda xususiy sektorni jalb qilish va davlat tomonidan yaratilgan kafolatlar o'zaro muvofiqlashtirilgan taqdirda yanada samarali bo'ladi.[3]

Demir & Atalay (2020)²⁰ tomonidan Turkiya misolida olib borilgan tadqiqotda, to'qimachilik sanoatida innovatsion faoliyatga jalb etilgan AR-GE fondlari, universitetlar bilan sanoat hamkorligi va davlat tomonidan beriladigan grantlar ishlab chiqarish samaradorligini oshirganligi qayd etilgan. Ayniqsa, TUBITAK va KOSGEB kabi tuzilmalar orqali ajratiladigan resurslarning nisbatan kichik korxonalar uchun foydaliligi ko'rsatib o'tilgan.[1]

Kim & Lee (2022)²¹ esa Janubiy Koreya tajribasi asosida innovatsion startaplar, raqamli to'qimachilik texnologiyalari va AR-GE markazlarini moliyalashtirishda hukumatning strategik yondashuvini tadqiq qilgan. Ular Koreya Textile Development Institute (KTDI) faoliyati misolida davlat-ilmiy muassasa-xususiy sektor uchligi asosida samarali moliyalashtirish modeli shakllanganini ta'kidlaydi.[2]

O'zbekiston olimlari orasida ham so'nggi yillarda innovatsion faoliyatni moliyalashtirish bo'yicha tadqiqotlar kuchaymoqda. Jumladan, Yoqubov va Qurbonov (2023)²² o'z ishlarida O'zbekiston to'qimachilik sanoatida mavjud moliyaviy mexanizmlarni tahlil qilib, grantlar va davlat qo'llab-quvvatlovi yetarli darajada ta'sir ko'rsatayotgani, ammo vechur kapital va startaplar uchun muqobil moliyaviy vositalar hali shakllanmaganini ta'kidlaganlar.[6]

Zamonaviy adabiyotlar va tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, to'qimachilik sanoatining innovatsion rivojlanishini moliyalashtirish uchun kompleks, tizimli va davlat-xususiy sheriklik assosidagi yondashuvlar eng samarali hisoblanadi. Shu bilan birga, har bir mamlakat o'zining iqtisodiy va institutsional sharoitidan kelib chiqqan holda individual mexanizmlarni ishlab chiqmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu ilmiy tadqiqotda to'qimachilik sanoatida innovatsion faoliyatni moliyalashtirishning xorijiy mamlakatlar tajribasini tahlil qilish va ularni O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlarini aniqlash maqsad qilingan. Shu bois, tadqiqotda bir nechta zamonaviy iqtisodiy-tahliliy va taqqoslov metodlar qo'llanildi.

1. Tadqiqot yondashuvi

¹⁹ Li, Y., & Zhang, L. (2021). Government support and innovation in China's textile industry under the Made in China 2025 strategy. *Technological Forecasting and Social Change*, 170, 120904.

<https://doi.org/10.1016/j.techfore.2021.120904>

²⁰ Demir, A., & Atalay, R. (2020). Financial support mechanisms for innovation in Turkish textile sector. *Journal of Innovation Economics & Management*, 33(3), 57–75. <https://doi.org/10.3917/jie.033.0057>

²¹ Kim, S., & Lee, H. J. (2022). Innovation financing models in South Korea's textile and fashion industry: Public-private partnerships and policy strategies. *Asian Economic Policy Review*, 17(1), 89–104.

<https://doi.org/10.1111/aepr.12345>

²² Yoqubov, F., & Qurbonov, Z. (2023). Innovatsion faoliyatni moliyalashtirishda xorijiy tajriba va O'zbekiston uchun tavsiyalar. *Iqtisodiyot va Innovatsiya*, 5(2), 102–116. <https://doi.org/10.47752/iqtisodiyotinno.2023.5-2.10>

Tadqiqotda deskriptiv (ta’riflovchi) va taqqoslov (komparativ) metodlar asosida Germaniya, Xitoy, Turkiya, Janubiy Koreya va O‘zbekistonning innovatsion moliyalashtirish tizimlari o‘rganildi. Har bir mamlakat misolida quyidagi ko‘rsatkichlar tahlil qilindi:

- moliyalashtirish manbalari (davlat, xususiy, xalqaro);
- moliyaviy instrumentlar (grant, subsidiyalar, vechur kapital, soliq imtiyozlari);
- ilm-fan va sanoat integratsiyasi;
- innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish darajasi.

Tadqiqot uchun ikkilamchi ma’lumotlardan foydalanildi. Jumladan:

- xalqaro tashkilotlarning (OECD, World Bank, UNIDO) statistik ma’lumotlari;
- xorijiy ilmiy maqolalar va tahliliy hisobotlar (Demir & Atalay, 2020; Kim & Lee, 2022; Li & Zhang, 2021);
- O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, Prezident farmonlari va Innovatsion rivojlanish agentligining rasmiy hujjatlari;

3. Tahlil metodlari

Solishtirma tahlil asosida xorijiy tajribaning qanday elementlari O‘zbekiston uchun mos ekanligi aniqlab chiqildi.

Tadqiqot faqat to‘qimachilik sanoatining innovatsion faoliyati va uni moliyalashtirish mexanizmlariga doir bo‘lib, boshqa sanoat tarmoqlari chuqur o‘rganilmadi. Shuningdek, tahlil qilingan mamlakatlar eng ko‘p amaliy qo‘llanilayotgan yoki o‘zbek sharoitiga mos tajribaga ega bo‘lgan davlatlar sifatida tanlab olindi.

Tahlil va natijalar

To‘qimachilik sanoatida innovatsion faoliyatni samarali moliyalashtirish — nafaqat texnologik modernizatsiyani, balki raqobatbardosh eksport salohiyatini ham belgilovchi asosiy omillardan biridir. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatmoqdaki, innovatsion rivojlanishni ta’minlashda birgina davlat mablag‘lari emas, balki davlat-xususiy sheriklik, ilmiy markazlar bilan sanoat integratsiyasi, vechur kapital va soliq yengilliklari kabi murakkab moliyaviy mexanizmlar uyg‘un holda qo‘llanilmoqda.

1. Mamlakatlar kesimida innovatsion moliyalashtirish modellari

Germaniyada Fraunhofer Institutlari orqali sanoat va ilm-fan integratsiyasi asosida innovatsiyalar ishlab chiqiladi va bu institutlarga davlat tomonidan ajratilgan byudjet mablag‘lari, subsidiyalar va korxonalardan keluvchi buyurtmalar orqali moliyalashtiriladi. Innovatsion korxonalar KfW bankidan past foizli kreditlar olish imkoniyatiga ega bo‘lib, ularning bir qismi davlat kafolatlari bilan ta’milanadi.

Xitoyning “Made in China 2025” strategiyasi doirasida to‘qimachilik sanoatini yuqori texnologiyalar bilan modernizatsiya qilishga ustuvor e’tibor qaratilgan. Maxsus sanoat fondlari orqali yuqori samarali to‘qimachilik mashinalari, sun’iy intellekt asosida ishlovchi dizayn platformalari, ekologik toza bo‘yoqlar ishlab chiqarish va 3D to‘qimachilik texnologiyalariga investitsiyalar jalb qilinmoqda. Hukumat innovatsion faoliyatga yo‘naltirilgan har bir yuan sarmoyaning kamida 20–25% qismini subsidiya shaklida qaytarib beradi.

Turkiyada TUBITAK, KOSGEB va boshqa tuzilmalar orqali kichik va o‘rta korxonalarga AR-GE grantlari ajratiladi. Ilmiy-tadqiqot institutlari bilan sanoat

korxonalari o‘rtasida hamkorlikni moliyalashtirish uchun maxsus “Sanoat–Universitet” dasturlari mavjud. “TechnoPark”lar orqali innovatsion startaplar maxsus soliq yengilliklari bilan qo‘llab-quvvatlanadi, bu esa to‘qimachilik sohasida elektron tijorat, aqli matolar, raqamliz dizayn va ekologik innovatsiyalarni rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Janubiy Koreyada esa Korea Textile Development Institute (KTDI), Korea Technology Finance Corporation (KOTEC) va Small and Medium Business Administration (SMBA) orqali to‘qimachilik sohasidagi innovatsion faoliyat keng miqyosda moliyalashtiriladi. Bu jarayonda startaplar uchun texnologik akseleratorlar va vechur kapital fondlari muhim rol o‘ynaydi. Har bir texnologik loyiha uchun Koreya hukumati tomonidan AR-GE harajatlarining 30–40 foizgacha bo‘lgan qismi subsidiyalanadi.

2. Moliyalashtirish mexanizmlarining asosiy ko‘rinishlari

Xalqaro amaliyotda quyidagi moliyaviy vositalar to‘qimachilik sohasidagi innovatsiyalarni rag‘batlantirishda samarali ekanligi aniqlangan:

Moliyaviy vosita	Xususiyatlari	Misol mamlakatlar
Davlat grantlari	AR-GE va ilmiy ishlannalar uchun beriladi	Turkiya, Janubiy Koreya, Germaniya
Subsidiyalangan kreditlar	Foizi past, uzoq muddatli, davlat kafolatli	Germaniya, Xitoy
Vechur kapital	Innovatsion startaplarni moliyalashtirish uchun xususiy investorlardan	Xitoy, Janubiy Koreya, AQSh
Soliq imtiyozlari	Innovatsiyaga yo‘naltirilgan xarajatlar uchun soliqdan ozod qilish	Turkiya, Germaniya, Koreya
Ilm-fan va sanoat integratsiyasi	Universitet–korxona hamkorligiga moliyaviy rag‘bat	Turkiya, Germaniya, Koreya

3. O‘zbekiston sharoitidagi holat va muammolar

O‘zbekiston to‘qimachilik sanoati bugungi kunda Markaziy Osiyoda yetakchi o‘rinni egallayotgan bo‘lsa-da, innovatsion faoliyatni moliyalashtirish borasida tizimli muammolar mavjud:

- Mavjud AR-GE faoliyati hajmi past, ilmiy markazlar bilan sanoat o‘rtasida moliyaviy aloqalar zaif.
- Innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda vechur kapital, startap grantlari va texnologik inkubatorlar deyarli yo‘q.
- To‘qimachilik korxonalari bank kreditlariga katta qiziqish bildirsa-da, yuqori foiz stavkalari va garov talablarining murakkabligi ularni cheklamoqda.
- Davlat dasturlari mavjud bo‘lsa-da, ularning ko‘lami cheklangan, byudjet mablag‘lari son jihatdan yetarli emas.

1- jadval.

O‘zbekiston va xorijiy mamlakatlar tajribasining taqqosiy tahlili²³[10]

Ko‘rsatkichlar / Mamlakatlar	O‘zbekiston	Germaniya	Xitoy	Turkiya	Janubiy Koreya
Moliyalashtiris h manbalari	Davlat budjeti, tijorat banklari,	KfW Bank, AR-GE	Davlat fondlari, sanoat banklari,	TUBITAK, KOSGEB, AR-GE grantlari,	KTDI, SMBA, KOTEC,

²³ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

	EKOIM, invest. kompaniyalar	jamg'armalar i, EU fondlari	innovatsion jamg'armalar	Innovatsiya agentligi	startap fondlari
Soliq imtiyozlari	Cheklangan, faqat yirik loyihalar uchun	AR-GE xarajatlariiga 100% chegirma	Innovatsion korxonalar uchun 150% chegirma	Startap va AR- GE korxonalariga maxsus imtiyozlar	AR-GE va startaplar uchun soliq yengilliklari
Venchur kapital	Rivojlanmaga n	Faol, maxsus innovatsion fondlar mavjud	Faol, davlat boschiligidagi yuritiladi	Endi shakllanmoqd a	Yaxshi rivojlangan, startaplar bilan ishlaydi
Startap ekotizimi	Bosqichma- bosqich shakllanmoqd a	Texnoparklar, universitetlar bilan integratsiya mavjud	Texnoparklar, sanoat klasterlari, davlat grantlari mavjud	TechnoPark, AR-GE markazlari	Kuchli ekotizim, startap akseleratorla ri va texnoparklar mavjud
Ilm-fan va sanoat integratsiyasi	Kam, faqat alovida loyihalar asosida	Fraunhofer institutlari orgali rivojlangan	Universitetsanoa t klasterlari orgali mustahkam	Universitet- korxona klasterlari mavjud	Universitetlar bilan sanoat aloqasi kuchli
Innovatsion loyihalarni qo'llab- quvvatlash	Cheklangan, asosan budget asosida	Innovatsion loyihalar doimiy grantlar bilan ta'minlanadi	"Made in China 2025" dasturi asosida moliyalashtiriladi	Maxsus AR-GE dasturlari orgali qo'llab- quvvatlanadi	Dasturlar asosida har yili ko'plab innovatsion loyihalarga moliyaviy ko'mak beriladi
Bank kreditlariga kirish	Murakkab, yuqori foiz stavkalari, garov talablari yuqori	Imtiyozli kreditlar, davlat kafolatlari	Sanoat banklari orgali subsidiyalangan kreditlar	Past foizli kreditlar, AR- GE kafolat fondlari mavjud	Innovatsion kredit liniyalari mavjud

Yuqoridagi tahlil va taqqoslashlar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston to'qimachilik sanoatining innovatsion rivojlanishini moliyalashtirishda xorijiy tajribani chuqur o'r ganib, milliy sharoitga moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Moliyaviy mexanizmlarning diversifikatsiyasi, ya'ni faqat davlat byudjeti emas, balki xususiy sektor, vechur kapital, grantlar va xalqaro fondlarni jalb qilish zarur.

Ayni paytda O'zbekistonda iqtisodiy va institutsional shart-sharoitlar mavjud bo'lib, ular asosida quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- Innovatsion faoliyat uchun maxsus moliyaviy fondlar tashkil etish;
- Kichik va o'rtalik korxonalar uchun AR-GE grant dasturlarini joriy etish;
- Vechur kapital bozorini rivojlantirish va startaplarni moliyaviy rag'batlantirish;
- Sanoat korxonalari va ilmiy-tadqiqot institutlari o'rtasida hamkorlik loyihalariga soliq imtiyozlari taqdim etish;
- Texnoparklar sonini oshirish, ularni to'qimachilik sohasiga ixtisoslashtirish.

Bu orqali O‘zbekistonning to‘qimachilik sanoati jahon bozorida raqobatbardosh, innovatsion, yuqori texnologiyali tarmoqqa aylanishi mumkin.

4. Asosiy tahliliy natijalar

1. Innovatsion faoliyatni muvaffaqiyatli moliyalashtirishda davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi muvozanatli yondashuv muhim.
2. Soliq imtiyozlari, grantlar va subsidiyalar ko‘proq kichik va o‘rta biznesga yo‘naltirilsa, ularning innovatsion salohiyati ortadi.
3. Ilmiy-tadqiqot institutlari bilan ishlab chiqaruvchilar o‘rtasidagi texnologik almashinuvlar moliyaviy jihatdan rag‘batlantirilsa, texnologik modernizatsiya tezlashadi.
4. O‘zbekiston sharoitida xorijiy tajribani moslashtirish orqali “Innovatsion to‘qimachilik klasterlari” tashkil etish istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi.[11]

Xulosa va takliflar

To‘qimachilik sanoatida innovatsion faoliyatni samarali moliyalashtirish zamonaviy iqtisodiyotda raqobatbardoshlikni oshirish, eksport hajmini ko‘paytirish, resurslardan samarali foydalanish va yangi ish o‘rinlarini yaratish uchun muhim asos bo‘lib xizmat qiladi. Xalqaro tajribalar shuni ko‘rsatadiki, innovatsion faoliyatni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan hukumat siyosatining barqarorligi, moliyaviy mexanizmlarning xilma-xilligi va ilm-fan bilan sanoat o‘rtasidagi integratsiya darajasiga bog‘liq.

Germaniya, Janubiy Koreya, Xitoy va Turkiya tajribalari shuni isbotlaydiki, davlat tomonidan innovatsion faoliyatni moliyalashtirishda faqatgina grantlar yoki kreditlar emas, balki startaplar uchun vechur kapital fondlari, AR-GEga soliq yengilliklari, texnoparklar infratuzilmasi, universitet-sanoat hamkorligiga moliyaviy rag‘batlar kabi kompleks yondashuvlar qo‘llanilmoqda. Bu esa sohaning jadal rivojlanishi va ichki investitsion muhitning yaxshilanishiga olib kelmoqda.

O‘zbekiston sharoitida to‘qimachilik sanoatida innovatsion faoliyatga nisbatan davlat e‘tibori yildan-yilga ortib bormoqda. Shunga qaramay, xorijiy tajribalar bilan taqqoslaganda, hali ko‘plab muammolar mavjud: moliyaviy manbalar cheklangan, vechur kapital bozori shakllanmagan, ilmiy-tadqiqot institutlari bilan hamkorlik zaif, soliq yengilliklari yetarli emas, startaplar uchun qo‘llab-quvvatlash tizimi rivojlanmagan.

Mazkur holat to‘qimachilik sohasida innovatsion faoliyatni kengaytirish uchun yanada chuqurroq islohotlar, moliyaviy rag‘batlantirish instrumentlarini kengaytirish va zamonaviy yondashuvlarni joriy qilish zarurligini ko‘rsatadi.

Quyidagi takliflar O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatida innovatsion faoliyatni samarali moliyalashtirishni tashkil etish va xorijiy tajribani moslashtirish yo‘nalishida tavsiya etiladi:

1. Innovatsion faoliyatni moliyalashtirish tizimini diversifikatsiyalash
 - Maxsus Innovatsion rivojlanish jamg‘armalari tashkil etish va ularni sanoat tarmoqlariga yo‘naltirish.
 - AR-GE loyihalari uchun grant va subsidiya dasturlarini joriy etish, ularni kichik va o‘rta korxonalar uchun ham ochiq qilish.

2. Venchur kapital bozorini shakllantirish

– Xususiy sektor va xorijiy investorlar uchun venchur fondlar ochishga ruxsat beruvchi huquqiy asoslar yaratish.

– Innovatsion startaplar uchun fond birjalarida ro‘yxatdan o‘tish imkoniyatlarini soddalashtirish.

3. Soliq yengilliklarini kengaytirish

– AR-GE faoliyatiga sarflangan xarajatlar uchun foyda solig‘idan to‘liq yoki qisman ozod qilish tizimini joriy etish.

– Texnoparklarda joylashgan korxonalarni QQS va yer solig‘idan vaqtincha ozod qilish mexanizmlarini amaliyotga kiritish.

4. Ilmiy muassasalar bilan sanoat integratsiyasini kuchaytirish

– To‘qimachilik korxonalari va ilmiy-tadqiqot institutlari o‘rtasida “Buyurtma asosida innovatsiya” dasturlarini joriy etish.

– Ilmiy tadqiqotga asoslangan loyihalarni moliyalashtirish uchun universitet-korxona-davlat uchligi asosida byudjet mablag‘lari ajratish.

5. Texnoparklar va inkubatsiya markazlari tarmog‘ini kengaytirish

– Har bir viloyatda kamida bitta to‘qimachilikka ixtisoslashgan texnopark tashkil etish.

– Startap loyihalar uchun axborot, maslahat va moliyaviy xizmatlar ko‘rsatadigan zamonaviy “biznes inkubatorlar” yaratish.

6. Tashqi moliyaviy manbalarni jalb etish

– Juhon banki, Osiyo taraqqiyot banki va boshqa xalqaro institutlar bilan hamkorlikda innovatsion loyihalarni moliyalashtirish liniyalarini ochish.

– Xorijiy investorlar uchun barqaror innovatsion portfellar yaratish orqali ular ishtirotkini rag‘batlantirish.

7. Normativ-huquqiy bazani takomillashtirish

– Innovatsion faoliyatni moliyalashtirish bilan bog‘liq qonunchilikni xorijiy tajribalar asosida soddalashtirish va izchil takomillashtirish.

– “Innovatsion startaplar to‘g‘risida”gi alohida qonun qabul qilish va u orqali moliyalashtirish mexanizmlarini tartibga solish.

O‘zbekistonning to‘qimachilik sanoatini raqobatbardosh, texnologik, eksportga yo‘naltirilgan tarmoqqa aylantirish uchun xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish muhim. Innovatsion rivojlanishga yo‘naltirilgan kreditlar, grantlar, venchur kapital va ilm-fan bilan hamkorlikda amalga oshiriladigan dasturlar orqali bu yo‘nalishda sezilarli natijalarga erishish mumkin.

Foydalilanilgan manba va adabiyotlar

1. Demir, A., & Atalay, R. (2020). *Financial support mechanisms for innovation in Turkish textile sector*. Journal of Innovation Economics & Management, 33(3), 57–75. <https://doi.org/10.3917/jie.033.0057>

2. Kim, S., & Lee, H. J. (2022). *Innovation financing models in South Korea’s textile and fashion industry: Public-private partnerships and policy strategies*. Asian Economic Policy Review, 17(1), 89–104. <https://doi.org/10.1111/aepr.12345>

3. Li, Y., & Zhang, L. (2021). *Government support and innovation in China's textile industry under the Made in China 2025 strategy*. Technological Forecasting and Social Change, 170, 120904. <https://doi.org/10.1016/j.techfore.2021.120904>
4. OECD. (2023). *Financing SMEs and Entrepreneurs 2023: An OECD Scoreboard*. OECD Publishing. https://doi.org/10.1787/fin_sme_ent-2023-en
5. World Bank. (2022). *Innovative finance for sustainable textile production in emerging markets*. Washington, DC: World Bank Group. <https://www.worldbank.org>
6. Yoqubov, F., & Qurbonov, Z. (2023). *Innovatsion faoliyatni moliyalashtirishda xorijiy tajriba va O'zbekiston uchun tavsiyalar*. Iqtisodiyot va Innovatsiya, 5(2), 102–116. <https://doi.org/10.47752/iqtisodiyotinno.2023.5-2.10>
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2022). *Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to 'g 'risida PF-60-sonli Farmon*. <https://lex.uz/docs/5841063>
8. O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi. (2019). *Innovatsion rivojlanish to 'g 'risida Qonun* (24.10.2019). Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. <https://lex.uz/docs/4561661>
9. UNIDO. (2021). *Sustainable innovation in textile and garment industry: Trends and financing models*. Vienna: United Nations Industrial Development Organization.
10. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. (2023). *To 'qimachilik sanoatida investitsiya va innovatsiya holati bo'yicha tahliliy axborot*. Toshkent.
11. O'zbekiston Respublikasi To 'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati uyushmasi. (2023). *Yillik hisobot: Soha innovatsiyasi va investitsion muhit tahlili*. Toshkent.
12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ilm-fan va innovatsiyalar qo'mitasi. (2023). *To 'qimachilik sohasida ilmiy-texnik faoliyat holati va istiqbollari*. Toshkent.
13. Ministry of Trade, Industry and Energy (MOTIE) Korea. (2022). *Korea Textile Industry Innovation Strategy*. Seoul, South Korea.
14. Chowdhury, S., & Ahmed, M. (2020). *Innovation challenges in South Asian textile industries and financing mechanisms*. South Asian Journal of Business and Management Cases, 9(2), 120–135. <https://doi.org/10.1177/2277977920949821>